

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/10.12.2019.I.16.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

XAMDAMOV SARDOR FARMON O‘G‘LI

KORXONA MOLIYAVIY SIYOSATINI AMALGA OSHIRISH
AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH

08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit

Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Toshkent – 2024

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии
(PhD) по экономическим наукам**

**Table of contents of the abstract of the doctor of philosophy (PhD)
dissertation in economic sciences**

Xamdamov Sardor Farmon o‘g‘li

Korxonada moliyaviy siyosatini amalga oshirish amaliyotini takomillashtirish3

Хамдамов Сардор Фармон угли

Совершенствование практики реализации финансовой политики
предприятия.....29

Xamdamov Sardor Farmon ugli

Improving the practice of forming the financial policy of an enterprise.....57

E‘lon qilingan ishlar ro‘yhati

Список опубликованных работ

List of published works.....61

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/10.12.2019.I.16.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

XAMDAMOV SARDOR FARMON O‘G‘LI

**KORXONA MOLIYAVIY SIYOSATINI AMALGA OSHIRISH
AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.4.PhD/Iqt1912 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.tsue.uz) hamda "Ziyonet" axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

| | |
|----------------------------|--|
| Ilmiy rahbar: | Berdiyarov Baxriddin Tavasharovich iqtisodiyot fanlari doktori, professor |
| Rasmiy opponentlar: | Xudaykulov Xurshid Xurramovich iqtisodiyot fanlari doktori, professor Pardayev Umid Uralovich iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent |
| Yetakchi tashkilot: | O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi |

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/10.12.2019.I.16.01 raqamli ilmiy kengashning 2024-yil "___" _____ soat _____dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100003, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel.: (99871) 239-28-72; faks: (99871) 239-43-51. e-mail: tdu@tdu.uz)

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___ raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100003, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel.: (99871) 239-28-72; faks: (99871) 239-43-51. e-mail: tdu@tdu.uz)

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil "___" _____ kuni tarqatildi.
(2024-yil "___" _____dagi _____-raqamli reestr bayonnomasi).

S.U. Mexmonov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, i.f.d., professor

U.V. Gafurov

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash kotibi, i.f.d., professor

S.K. Xudoyqulov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, i.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda global moliyaviy-iqtisodiy beqarorlikning ta'siri sharoitida iqtisodiy o'sish hamda ishlab chiqarish sanoati korxonalari faolligining pasayishi holatlari kuzatilmoqda. Bu aksariyat hollarda korxonalar moliyaviy siyosatini amalga oshirishning past samarasi, uni ishlab chiqishda ko'plab muhim omillarni e'tiborga olinmaganligi orqali namoyon bo'lmoqda. "Korxonaning samarali moliyaviy siyosatini amalga oshirish moliyaviy resurslarni boshqarishda qo'llaniluvchi mavjud dastaklar, usullar va yondashuvlarni tanlashga bog'liq bo'lib, mazkur holat moliyaviy siyosatni moliyaviy menejment, buxgalteriya hisobi, huquq, statistika, matematika, informatika va boshqa funksional fanlar bilan o'zaro bog'liqligini ta'minlaydi"¹. Shu bois, iqtisodiyotni modernizatsiyalash va liberallashtirish jarayonlarida fiskal siyosat va korxonalar moliyaviy salohiyatini oshirish muammolarining keskinlashuvi va korxonalar moliyaviy siyosati taraqqiyotining samarali mexanizmlarini qo'llash ko'p jihatdan korxonalar moliyaviy siyosatini samarali shakllantirishni taqozo etadi.

Jahon iqtisodiyotida taraqqiyotning muvaffaqiyati va barqarorligini belgilovchi asosiy muammolarni hal etish bilan bog'liq bo'lgan korxonalar moliyaviy siyosatini shakllantirish borasida ko'plab ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Korxonalarda moliyaviy rejalashtirish, soliqlarni strategik rejalashtirish metodologiyasi va bosqichlari, soliq logistikasi, soliq risklari va moliyaviy prognozlashning integratsiyalashgan tizimini asoslash, korxonalar moliyaviy siyosatiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash, ularni baholash hamda takomillashtirish usullari va vositalarini ishlab chiqish, moliyaviy siyosatini shakllantirish mexanizmlarini hamda tartibga solishni ishlab chiqish metodologiyasini takomillashtirish masalalari bu boradagi ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlari hisoblanadi.

O'zbekistonda milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini va barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashda korxonalar moliyasini samarali boshqarishga qaratilgan moliya-soliq siyosati izchillik bilan takomillashtirib borilmoqda. Xususan, bu borada mamlakatda chuqur institutsional o'zgarishlar amalga oshirilib, korxonalar moliyaviy siyosatini shakllantirish bo'yicha maqsadli kompleks dasturlar va chora-tadbirlar qabul qilinmoqda. Korxonalar moliyaviy siyosatini shakllantirish nazariyasi va uslubiyotini takomillashtirish yo'nalishlarini o'rganish hozirgi zamon moliya fanining yangi va murakkab tadqiqot predmeti sifatida namoyon bo'lmoqda. Shu bilan birga korxonalar moliyaviy siyosatini shakllantirish jarayonini tadqiq qilishning nazariy-metodologik bazasi hali yetarli darajada tizimlashtirilmagan bo'lib, asosan korporativ moliya, korporativ boshqaruv konsepsiyalariga asoslanib qolmoqda. Bu boradagi vazifalarni samarali amalga oshirish davlat ishtirokidagi korxonalar moliyaviy siyosati samaradorligini baholashda qo'llanadigan asosiy va qo'shimcha samaradorlik ko'rsatkichlari tizimini takomillashtirish, korxonalar moliyaviy siyosatini shakllantirish va

¹ Finansovaya politika: teoreticheskiye aspekty formirovaniya i realizatsii : uchebnoye posobiye / N. Yu. Isakova, Ye. A. Smorodina, V. B. Rodicheva i dr. ; pod общ. red. N. Yu. Isakovoy, Ye. A. Smorodinoy ; Ministerstvo nauki i vysshego obrazovaniya Rossiyskoy Federatsii, Uralskiy federal'nyy universitet. – Yekaterinburg : Izd-vo Ural. un-ta, 2022. – S.54.

amalga oshirishning asosiy mezonlari va natijaviy yondashuvlarini ishlab chiqish, korxonalar soliq majburiyatlarini rejalashtirish va samarali boshqarishda korporativ soliq madaniyati va soliq axloqi tamoyillariga asoslangan, natijaga yoʻnaltirilgan ragʻbatlantirish tizimini qoʻllash muammolarini tadqiq etishga yoʻnaltirilgan ilmiy-tadqiqot ishlarining dolzarbligini namoyon etadi.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022 – 2026-yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasi toʻgʻrisida”gi Farmoni, 2019-yil 3-apreldagi PQ-4265-son “Kimyo sanoatini yanada isloh qilish va uning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”, 2019-yil 1-maydagi PQ-4302-son “Sanoat kooperatsiyasini yanada rivojlantirish va talab yuqori boʻlgan mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi qarorlari, Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 9-dekabrda 775-son “Davlat ishtirokidagi korxonalar ijro etuvchi organi faoliyati samaradorligini baholash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi qarori hamda mazkur sohaga tegishli boshqa meʼyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining asosiy ustuvor yoʻnalishlariga mosligi. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni maʼnaviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yoʻnalishlariga muvofiq bajarilgan.

Muammoning oʻrganilganlik darajasi. Korxonaning moliyaviy salohiyati masalalari J.B.Budvil, N.Grosjan, P.Krugman, A.Lyosh, B.O.Lundval, J.Mansinen, E.Mey, F.Perru, P.Romer, N.I.Berzon, I.S.Bukina, V.K.Burlachkov, I.Yu.Varyash, M.I.Gelvanovskiy, B.V.Gubin, A.S.Jegalova, A.Yu.Laykov, L.N.Likova, V.D.Milovidov, Ya.M.Mirkin, A.Yu.Mixaylov, V.K. enchagov, V.V.Simonyan, E.Raynert, X.Richardson, Dj.Fridman, K.Frimen, P.Xagget, T.Xagerstrand, M.Porter, Y.Shumpeter va shu kabi boshqa korporativ moliyaviy menejment nazariyalari mualliflari tomonidan tadqiq etilgan².

Yaqin xorijiy davlatlarda korxonalar moliyaviy siyosatini amalga oshirishning nazariyasi va tashkil etish muammolarini tadqiq qilish takror ishlab chiqarishdan zamonaviy fanga oʻtish bosqichida turibdi. Bularga misol tariqasida A.G.Granberg, Yu.A.Gadjiyev, S.M.Drobishevskiy, V.K.Lomakin, Ya.D.Lisovolik, G.L.Azoyev, B.S.Jixarevich, R.Fatxutdinov, Yu.V.Savelev, E.A.Kolomak, A.Yu.Kazak, V.A.Kashin, L.P.Pavlova, R.G.Samoyev, M.V.Romanovskiy, I.G.Rusakova, T.F.Yutkina, A.S.Novoselov, S.S.Artobolevskiy, B.M.Grinchel kabi olimlarning izlanishlarini keltirish mumkin³.

² Shumpeter Y. Teoriya ekonomicheskogo razvitiya / Per. s nem.: – M.: Progress, 2015. – 455 s.; Hayek F.A. Taxe and Economic Order / F.A. Hayek. – Chicago: Univ. of Chicago Press, 1948; Porter M. Mejdunarodnoye planirovaniye nalogov: Per. s angl.-5-ye izd. / Pod red. V.D.Ицетинина. – M.: Mejdunarodnye otnosheniya, 2017g. – 886 s.; Krugman P. Geography and Taxe Trade. Cambridge: The MIT Press, 2016; Fujita M., Krugman P., Venables A.J. The Taxe Economy: Citiyes, Regions and International Taxe Trade. – The MIT Press, 2015. P. 384.

³ Granberg A.G. O programme fundamentalnykh issledovaniy korporativnogo nalogovogo planirovaniya. //Nalogi i nalogooblojeniye, №2, 2016. s.166-178; Gadjiyev Yu.A. Zarubejnye teorii nalogovogo menedjmenta // Finansovyy menedjment, vypusk 2 y, 2016. s.45-62; Lomakin V.K. Nalogovoye planirovaniye i prognozirovaniye. Uchebnik / 5-ye izd. – M.: YUNITI-DANA, 2017. – 671 s.; Lisovolik Ya.D. Nalogi atsiyonernykh obshstv: osobennosti i problemy sovremennogo razvitiya // Rossiyskiy jurnal, 12-yanvarya 2017 g.; Azoyev G.L. Korporativnoye

O‘zbekistonda B.Yu.Xodiyev, B.B.Berkinov, I.L.Butikov, D.X.Suyunov, M.B.Xamidullin, A.A.Xoshimov, R.X.Karlibayeva, S.S.G‘ulomov, R.I.Yaushev va boshqa olimlar o‘z ilmiy ishlarida korxonalar moliyaviy siyosatini amalga oshirish, shakllantirish va uning milliy modeli shakllanishi bosqichlarining o‘ziga xos bo‘lgan afzallik va kamchiliklarini tavsiflashga katta e‘tibor qaratgan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Ushbu dissertatsiya ishi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq A-192021-son “O‘zbekistonda moliyaviy siyosatni tashkil etish va takomillashtirish” mavzusidagi ilmiy-amaliy loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi korxonalar moliyaviy siyosatini amalga oshirish amaliyotini takomillashtirishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

korxonalar moliyaviy siyosatini shakllantirishning zarurligi, mohiyati va funksiyalarini tadqiq etish;

korxonalarda moliyaviy rejalashtirishga tizimli yondoshuvni shakllantirishning nazariy asoslarini o‘rganish;

korporativ moliyaviy menejment tarkibida moliyaviy rejalashtirishning tutgan o‘rni va tamoyillarini baholash;

korxonalarda moliyaviy rejalashtirishning ahamiyati va vazifalarini baholash;

korxonada soliqlarni strategik rejalashtirish metodologiyasi va bosqichlarini tahlil etish;

soliq logistikasi — soliqlarni rejalashtirishning belgilovchi komponenti sifatidagi rolini baholash;

soliqlarni optimallashtirish — soliqlarni rejalashtirishning asosiy amaliy komponenti sifatidagi ahamiyatini baholash;

soliq to‘lovlarini minimallashtirish – korxonada soliqlarni rejalashtirishning ziddiyatli komponenti ekanligini asoslash;

soliq risklari va moliyaviy barqarorlikni ta’minlashga qaratilgan moliyaviy prognozlashning integratsiyalashgan tizimini asoslash;

korxonalar soliqlar imkoniyatlari istiqbollari belgilashning ilmiy-uslubiy asoslarini takomillashtirishga oid takliflar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida O‘zbekistonning yirik sanoat korxonalari, xususan “O‘z kimyosanoat” AJ olingan.

Tadqiqotning predmetini korxonalar moliyaviy siyosatini amalga oshirishda yuzaga keladigan iqtisodiy munosabatlar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada guruhlash, qiyosiy taqqoslash, induksiya, deduksiya, kuzatuv, nazariy va amaliy tahlil, ekonometrik tahlil, iqtisodiy va matematik modellashtirish usullaridan keng foydalanilgan.

nalogovoye planirovaniye: analiz, strategiya i praktika. –3-ye izd. M.: Sentr prognozirovaniya i analiza, 2015. – 208 s.; Jixarevich B.S., Limonov L.E., Junda N.B. i dr. Nalogovoye planirovaniye i prognozirovaniye. Uchebnik v 2-x tomax. – M.: Yurayt, 2014; Fatxutdinov R. Finansy i nalogi atsiyonernykh obshchestv: monografiya. – M.: RIA Standarty i kachestvo, 2016. – 464 s.; Savelev Yu.V. Nalogovoye planirovaniye predpriyatiy: ot teorii k praktike. – Petrozavodsk: KarNS RAN, 2016. – 516 s.; Grinchel B.M. Povysheniye nalogovogo potentsiala kak obshchaya zadacha strategicheskogo planirovaniya. – SPb., 2016. – 120 s.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

uslubiy yondashuvga ko‘ra “korxonalar moliyaviy siyosati” tushunchasi korxonalar moliyaviy resurslarini shakllantirish, ulardan oqilona va samarali foydalanishga yo‘naltirilgan boshqarish usullarining majmui sifatida asosiy va qo‘shimcha samaradorlik ko‘rsatkichlariga tizimlashtirilgan baholash jihatidan takomillashtirilgan;

korxonalar soliq majburiyatlarini rejalashtirish va samarali boshqarishda korporativ soliq madaniyati va soliq axloqi tamoyillariga asoslangan, natijaga yo‘naltirilgan rag‘batlantirish tizimini qo‘llash taklifi ishlab chiqilgan;

«O‘zbekiyosanoat» AJ tarkibidagi korxonalar moliyaviy-iqtisodiy jarayoni algoritmi aksiyadorlik jamiyatlaridagi alohida mustaqil amal qiluvchi moliyaviy loyihalar uchun maxsus moliyaviy siyosatini shakllantirish va amalga oshirish talabiga ko‘ra takomillashtirilgan;

«O‘zbekiyosanoat» AJ korxonasi moliyaviy siyosatida innovatsion faollikni soliq samarasini baholashning ekonometrik modellari asosida 2030-yilga qadar asosiy prognoz ko‘rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

O‘zbekiston Respublikasida korxonalar moliyaviy siyosatini shakllantirish nazariyasi va uslubiyotiga yangicha yondashish zarurligini belgilovchi omillar tahlil qilinib, ularni samarali boshqarish tadbirlari asoslab berilgan;

korxonalarda moliyaviy rejalashtirish funksiyalari umumlashtirilib, to‘ldirilib, yagona kompleks ko‘rinishiga keltirilgan;

moliyaviy rejalashtirish jarayonida rioya etishi lozim bo‘lgan tamoyillar aniqlanib, korxonalar duch kelishi mumkin bo‘lgan risklar tavsiflangan;

korxonalarda moliyaviy salohiyatni oshirish va optimallashtirish tushunchalarining mazmuni aniqlashtirilib, ular farqlanish mezonlari asoslab berilgan;

korxonalar moliyasini boshqarishni optimallashtirish usullari, jumladan, korxonaning hisob, investitsiya, innovatsiya, baho va shartnoma siyosati mutanosibli asosidagi harakatlarining yo‘l xaritasi tavsiflanib, moliyaviy rejalashtirishning optimal sxemasi ishlab chiqilgan;

korxonalar moliyaviy siyosatini shakllantirishning nazariy va uslubiy asoslarini takomillashtirish va korxonalar moliyasini rejalashtirish imkoniyatlaridan samarali foydalanish mexanizmlari va chora-tadbirlarini ishlab chiqishga asoslangan maxsus model orqali korporativ moliya menejmenti samaradorligini takomillashtirish yo‘llari ishlab chiqilgan;

korxonalar moliyaviy siyosatini shakllantirish va korxonalar moliyasini rejalashtirish imkoniyatlaridan samarali foydalanish mexanizmlari va chora-tadbirlariga oid samarali korporativ moliyaviy siyosat Konsepsiyasi (SKMSK) taklif qilingan;

korxonalar moliyaviy siyosatining samaradorligini baholash uslubiyoti taklif etilgan;

korxonalar moliyasini rejalashtirishning korporativ moliyaviy menejmentga ta’sirini baholash, prognoz qilish va ularning uzoq va qisqa muddatli bog‘liklikda amal qilish imkoniyatlarini baholash uslubiyoti ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Dissertatsiyada qo‘llanilgan yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi, ekonometrik va matematik usullarning asoslanganligi, statistik ma’lumotlarning O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi ma’lumotlariga hamda boshqa rasman e’lon qilingan amaliy ma’lumotlar tahliliga asoslanganligi, tegishli xulosa, taklif va tavsiyalarning mutasaddi tashkilotlar tomonidan amaliyotga joriy etilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati izlanishlar davomida olingan va ilgari surilgan nazariy yondashuvlar, ilmiy taklif hamda amaliy tavsiyalardan korxonalar moliyaviy siyosatini shakllantirishning nazariy va uslubiy asoslarini takomillashtirish va korxonalar moliyasini rejalashtirish imkoniyatlaridan samarali foydalanish mexanizmlari va chora-tadbirlarini ishlab chiqishga qaratilgan innovatsion loyihalarni, maqsadli rivojlantirish dasturlari va ustuvor yo‘nalishlarini ishlab chiqishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati unda ishlab chiqilgan amaliy taklif va tavsiyalardan korxonalar moliyaviy siyosatini shakllantirishning nazariy va uslubiy asoslarini takomillashtirish va korxonalar moliyasini rejalashtirish imkoniyatlaridan samarali foydalanish mexanizmlari va chora-tadbirlarini ishlab chiqishga qaratilgan strategiyalar va davlat maqsadli dasturlarini ishlab chiqishda, mavjud moliyaviy salohiyatdan samarali foydalanish yo‘llarini aniqlashda, tizimli monitoringni amalga oshirishda, yangi investitsiya loyihalarini amalga oshirishda hamda oliy ta’lim muassasalarida “Korporativ moliya”, “Moliyaviy menejment” kabi maxsus fanlarni o‘qitishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Korxonalar moliyaviy siyosatini amalga oshirish amaliyotini takomillashtirishga qaratilgan taklif va tavsiyalar asosida:

uslubiy yondashuvga ko‘ra “korxonalar moliyaviy siyosati” tushunchasi korxonalar moliyaviy resurslarini shakllantirish, ulardan oqilona va samarali foydalanishga yo‘naltirilgan boshqarish usullarining majmui sifatida asosiy va qo‘shimcha samaradorlik ko‘rsatkichlariga tizimlashtirilgan baholash jihatidan takomillashtirilgan (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektorining 2024-yil 29-fevraldagi 45-sonli buyrug‘i);

korxonalar soliq majburiyatlarini rejalashtirish va samarali boshqarishda korporativ soliq madaniyati va soliq ahloqi tamoyillariga asoslangan, natijaga yo‘naltirilgan rag‘batlantirish tizimini qo‘llash taklifi “O‘zkimyosanoat” aksiyadorlik jamiyatida amaliyotga joriy etilgan (“O‘zkimyosanoat” AJning 2023 yil 4 apreldagi №19-1-935-sonli ma’lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida korxonaning soliq majburiyatlari yuzasidan to‘lov intizomiga rioya etishi darajasi o‘tgan yildagiga nisbatan 2021-yilda 6,4 foizga, 2022-yilda esa 4,3 foizga o‘sgan va tegishli tarzda 2021-2022-yillarda soliqlar bo‘yicha jarima, penya va ustamalar kamayishi hisobiga korxonalar ixtiyorida 1,28 mlrd.so‘m mablag‘ tejab qolinishi imkoni yaratilgan;

“O‘zkimyosanoat” AJ tarkibidagi korxonalar moliyaviy-iqtisodiy jarayoni algoritmini aksiyadorlik jamiyatlaridagi alohida mustaqil amal qiluvchi moliyaviy

loyihalar uchun maxsus moliyaviy siyosatini shakllantirish va amalga oshirish talabiga ko'ra takomillashtirish taklifi "O'zbekimiyosanoat" aksiyadorlik jamiyatida amaliyotga joriy etilgan ("O'zbekimiyosanoat" AJning 2023 yil 4 apreldagi №19-1-935-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida 2022-yil yakunlariga ko'ra, amalda ijro etilayotgan va umumiy hajmi 721,5 mlrd. so'mdan iborat investitsion loyihalar bo'yicha asbob-uskuna, butlovchi va ehtiyot qismlar uchun to'lanishi lozim bo'lgan 18,4 mlrd. so'mlik xarajatlarni korxonada ixtiyorida qoldirish imkoni yaratilgan;

"O'zbekimiyosanoat" AJ korxonasi moliyaviy siyosatida innovatsion faollikni soliq samarasini baholashning ekonometrik modellari asosida 2030-yilga qadar ishlab chiqilgan asosiy prognoz ko'rsatkichlari «O'zbekimiyosanoat» aksiyadorlik jamiyatida amaliyotga joriy etilgan ("O'zbekimiyosanoat" AJning 2023 yil 4 apreldagi №19-1-935-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida "O'zbekimiyosanoat" AJ korxonasi moliyaviy siyosatida innovatsion faollikni soliq samarasini baholashning ekonometrik modellari asosida uzoq muddatli istiqboldagi ko'rsatkichlarini aniqlashtirish hamda ularni korxonada faoliyatining boshqa parametrlari bilan o'zaro muvofiqligini ta'minlash imkoni yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiyaning ilmiy-amaliy natijalari 3 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi OAKning doktorlik dissertatsiyalari natijalarini chop etish tavsiya qilingan ilmiy jurnallarda 4 ta ilmiy maqola nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Ish 153 bet matndan iborat bo'lib, 19 ta jadval, 24 ta rasmni o'z ichiga oladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Ishning kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va asosiy vazifalari, obekti va predmeti shakllantirilgan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilishning sinovdan o'tganligi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Korxonalar moliyaviy siyosatini shakllantirishning ilmiy-nazariy asoslari**» deb nomlangan birinchi bobida korxonalarda moliyaviy siyosatni shakllantirishga tizimli yondoshuvning zarurligi, mohiyati va funksiyalari, korxonalar moliyaviy menejmenti tizimida moliyaviy rejalashtirishning tutgan o'rni va tamoyillari, korxonada zamonaviy korporativ boshqaruv tizimi sharoitida moliyaviy rejalashtirishning ahamiyati va vazifalari tadqiq qilingan.

Moliyaviy siyosat korxonaning strategik rivojlanish maqsadlarini belgilaydi, moliyaviy-iqtisodiy sharoitlarni va ularga erishish usullarini, shuningdek,

maqsadlarga erishishni nazorat qilish mezonlarini belgilaydi. Tadbirkorlikni rivojlantirishning kerakli ko‘rsatkichlarini, korxonalar faoliyatining “chegaraviy shartlari”ni belgilovchi korxonalar siyosatini ishlab chiqishni olimlar rejalashtirish funksiyasi deb atashadi.

Korxonalar moliyaviy siyosati” va “korxonalar moliyasini boshqarish” bir-birini taqozo etuvchi va to‘ldiruvchi tushunchalardir: ”korxonalar moliyaviy siyosati” milliy iqtisodiyotning amal qilishi va uning tarkibi sifat o‘zgarishlariga olib keluvchi “sezilarli tarkibiy kuch” bo‘lishi, ya’ni rivojlanishda sakrashga asos bo‘lishi mumkin.

1-jadval

Korxonalar moliyaviy siyosatni yuzasidan iqtisodchilarning ilmiy nazariy qarashlari

| Mualliflar | Moliyaviy siyosat tushunchasiga berilgan ta’riflar |
|------------------------|---|
| S.A.Shurov | Moliya siyosati iqtisodiy siyosatning tarkibiy qismidir; o‘z funksiyalari va vazifalarini amalga oshirish uchun moliyani tashkil etish va undan foydalanish bo‘yicha davlat chora-tadbirlari majmui; moliyaviy resurslarni safarbar etishning shakl va usullari tizimida, ularni sinflar va aholining ijtimoiy guruhlari, faoliyat sohalari va mamlakat hududlari o‘rtasida taqsimlashda, moliya qonunchiligida, davlat daromadlari va xarajatlari tarkibida namoyon bo‘ladi ⁴ . |
| I.V.Levchuk | Moliya siyosati — bu davlatning o‘z salohiyatini — iqtisodiy, harbiy, ekologik va ijtimoiy mustahkamlash uchun moliyadan foydalanish bo‘yicha faoliyati ⁵ . |
| L.A.Drobozina | Moliyaviy siyosat — bu ijtimoiy boylikni shakllantirish, taqsimlash va qayta taqsimlash jarayoni uzluksiz takror ishlab chiqarish jarayonini moliyaviy resurslar bilan ta’minlash va takror ishlab chiqarishning individual ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan maqsad va vazifalarni aniqlashdir ⁶ . |
| I.T.Balabanov | Moliyaviy siyosat davlatning iqtisodiy siyosatini amalga oshirishning moliyaviy asoslarini yaratish bo‘yicha eng samarali chora-tadbirlarni belgilash maqsadida davlatning moliya boshqaruvi sohasidagi maqsadli chora-tadbirlari to‘plamidir ⁷ . |
| Muallif ta’rifi | Korxonaning moliyaviy siyosati — bu korxonalar o‘z maqsadlariga erishish va moliyaviy barqarorlikni ta’minlash uchun o‘z moliyasini qanday boshqarishini belgilovchi strategiya va usullar majmuasidir. |

“Korxonalar moliyaviy siyosati” va “korxonalar moliyasini boshqarish” tushunchalarini qo‘llashning “ko‘lami va holatlaridan qat’iy-nazar ularni aniqlash va ular o‘zaro bog‘liqligini ifodalashga umumiy ilmiy mushohada etish kuzatilmayotir. Bizning fikrimizcha, “korxonalar moliyaviy siyosati” va “korxonalar moliyasini boshqarish” bir-birini taqozo etuvchi va to‘ldiruvchi tushunchalardir:

⁴ Shurov S.A. Dolgosrochnaya i kratkosrochnaya finansovaya politika predpriyatiya: ucheb. posobiye / pod. red. I.Ya. Lukasevicha. M.: Vuzovskiy kchebnik. 2007.

⁵ Levchuk I. V. Tovar kak semanticheskij attraktor //Vestnik Nijegorodskogo universiteta im. NI Lobachevskogo. – 2009. – №. 4. – S. 299-303.

⁶ Drobozina L.A. Denejnoye xozyaystvo predpriyatiy : uchebnik dlya vuzov / Veretennikovoy.— Yeaterinburg : Izd-vo AMB, 2016. — 464 s.

⁷ Balabanov I. T. Osnovy finansovogo menedjmenta. Kak upravlyat kapitalom? / [Tekst]: I.T. Balabanov. — M.: Finansy i statistika, 2014. — 384 c.

“korxonalar moliyaviy siyosati” milliy iqtisodiyotning amal qilishi va uning tarkibi sifat o‘zgarishlariga olib keluvchi “sezilarli tarkibiy kuch” bo‘lishi, ya’ni rivojlanishda sakrashga asos bo‘lishi mumkin.

2-jadval

Korxonalar istiqbolli moliyaviy rivojlanishining ustuvor soha (yo‘nalish)lari tavsifi⁸

| № | Korxonalar umumiy moliyaviy strategiyasi dominant soha (yo‘nalish)lari | Istiqbolli moliyaviy qarorlar ishlab chiqishning bosh vazifalari | Strategik moliyaviy muammolarni hal qilish doirasi |
|----|--|--|---|
| 1. | Moliyaviy resurslarni shakllantirish strategiyasi | Korxonalar moliyaviy resurslarini uning strategik rivojlanish ehtiyojlariga mos ravishda shakllantirish imkoniyatini yaratish | <p>1.1. Moliyaviy resurslarining ichki manbalar hisobidan shakllanish imkoniyatini o‘stirib borishni ta’minlash.</p> <p>1.2. Zarur “moliyaviy egiluvchanlik”ni ta’minlash (tashqi moliyalashtirish manbalaridan foydalanish imkoniyati mavjudligi).</p> <p>1.3. Moliyaviy resurslarni shakllanish manbalari tarkibini ularning qiymat mezonlari bo‘yicha optimallashtirish.</p> |
| 2. | Moliyaviy resurslarni taqsimlash strategiyasi | Korxonalar moliyaviy resurslarni taqsimlanishini ulardan foydalanish samaradorligi mezonlari bo‘yicha optimallashtirish | <p>2.1. Xo‘jalik faoliyatining ko‘rinishlari va asosiy yo‘nalishlari bo‘yicha moliyaviy resurslarning zarur mutanosiblikda taqsimlanishini ta’minlash.</p> <p>2.2. Korxonaning strategik xo‘jalik birliklari bo‘yicha moliyaviy resurslarning zarur mutanosiblikda taqsimlanishini ta’minlash.</p> <p>2.3. Moliyaviy resurslardan foydalanish jarayonida ularning yuqori samaradorlik qaytimini ta’minlash.</p> |
| 3. | Moliyaviy xavfsizlikni ta’minlash strategiyasi | Korxonaning strategik rivojlanish jarayonida moliyaviy barqarorlikni ta’minlash | <p>3.1. Doimiy to‘lovga layoqatlilikini ta’minlash.</p> <p>3.2. Yetarli moliyaviy barqarorlikni ta’minlash.</p> <p>3.3. Moliyaviy risklarning mumkin bo‘lgan salbiy oqibatlarini bartaraf etish.</p> <p>3.4. Inqirozli rivojlanish sharoitida korxonani moliyaviy sog‘lomlashtirishning zarur choratadbirlarini amalga oshirish.</p> |
| 4. | Moliyaviy faoliyatni boshqarishning sifatini oshirish strategiyasi | Strategik istiqbolda korxonalar moliyaviy faoliyatini boshqarishning sifatini oshirish shart-sharoitlari tizimini shakllantirish | <p>4.1. Moliyaviy menejerlar yuqori darajadagi kvalifikatsiyasini ta’minlash.</p> <p>4.2. Rivojlantirish bo‘yicha muqobil moliyaviy qarorlar ishlab chiqishning axborot bazalarini ta’minlash.</p> <p>4.3. Moliyaviy faoliyatni boshqarishda zamonaviy texnik vositalaridan, ilg‘or moliyaviy texnologiyalar va instrumentlarni joriy etish va samarali foydalanish.</p> <p>4.4. Moliyaviy faoliyatni boshqarishning samarali tashkiliy tuzilmalarini ishlab chiqish.</p> <p>4.5. Moliyaviy menejerlar yuqori darajadagi tashkiliy madaniyatini ta’minlash.</p> |

⁸ Muallif tadqiqotlari asosida tuzildi.

Korxonada moliyaviy imkoniyatlarining oshib borishiga erishish, odatda, davlat moliyaviy asoslarini mustahkamlovchi ichki zahiralardan biri hisoblanadi. Davlat yurisdiksiyasi doirasidagi xo‘jalik yurituvchi subektlar zimmasiga o‘zining xarajatlarini moliyalashtirishda ishtirok etish majburiyatini yuklaydi.

Korxonada moliyaviy siyosatining mazmuni, vazifalari va omillari tizimini iqtisodiy sistemologiya qoidalari asosida o‘rganish uni bir vaqtning o‘zida uch darajadagi munosabat majmui sifatida qarashni talab etadi.

Korxonalarda moliyaviy strategiyani ishlab chiqish va amalga oshirish jarayoni moliyaviy strategiyani shakllantirishning umumiy davrini aniqlash, tashqi moliyaviy muhit bilan bog‘liq omillarni tadqiq qilish, moliyaviy faoliyatning kuchli va kuchsiz tomonlarini baholash, strategik moliyaviy pozitsiyasini kompleks baholash, moliyaviy faoliyatning strategik maqsadlarini shakllantirish, moliyaviy faoliyatning maqsadli strategik me‘orlarini ishlab chiqish, asosiy strategik moliyaviy qarorlarni qabul qilish, ishlab chiqilgan moliyaviy strategiyani baholash, moliyaviy strategiyani amalga oshirishni ta‘minlash, moliyaviy strategiya amalga oshirilishini nazorat qilish kabi bosqichlar asosida amalga oshirilishi maqsadga muvofiq.

Dissertatsiyaning «**Korxonalarda moliyaviy siyosatni shakllantirish amaldagi holatining tahlili**» deb nomlangan ikkinchi bobida korxonalarda moliyaviy siyosatni shakllantirishning nazariy va uslubiy asoslari tahlili, korxonada moliyasini taktik rejalashtirish uslubiyoti va amaliyoti tahlili, korxonada moliyasini strategik rejalashtirish uslubiyoti va amaliyoti tahlili amalga oshirilgan.

Korxonada moliyaviy siyosatini shakllantirish tizimining asosiy elementlari quyidagilardir:

1) Korxonaning moliyaviy siyosati konsepsiyasini, uni shakllantirish maqsadlari va tamoyillarini oshkor qilish;

2) Korxonaning moliyaviy siyosatining obektlari va turlarini, uni shakllantirish bilan bog‘liq vazifalar majmuasini aniqlash;

3) moliyaviy siyosatni shakllantirishga ta‘sir qiluvchi korxonada faoliyatining tashqi va ichki sharoitlarini tizimlashtirish;

4) Korxonaning moliyaviy siyosatini ishlab chiqish vositalarini aniqlash;

5) korxonaning moliyaviy siyosatini ishlab chiqish va baholash uchun qo‘llaniladigan usullarni, mezonlarni va modellarni tanlashni umumlashtirish;

6) Korxonaning moliyaviy siyosatini shakllantirish tizimi elementlarining tarkibi va o‘zaro bog‘liqligini hisobga olgan holda korxonaning moliyaviy siyosati variantlarini shakllantirish va baholash;

7) Korxonaning moliyaviy siyosatini shakllantirish uchun axborot bazasining tuzilishi va mazmunini aniqlash;

8) Korxonaning moliyaviy siyosatini shakllantirish va amalga oshirishni ta‘minlaydigan subyektlarni aniqlash;

9) Korxonaning moliyaviy siyosatini shakllantirish algoritmini ishlab chiqish.

Qaror qabul qiluvchilar ishtirokida korxonaning moliyaviy siyosati elementlariga muqobil variantlarni baholash va tanlash uni shakllantirishda xulq-atvor jihatlarini hisobga olishni o‘z ichiga oladi. Ularni tartibga solish tahlil qilish va qaror qabul qilishning evristik usullaridan foydalanishni o‘z ichiga oladi.

Korxonada moliyaviy siyosat – dalat mikroiqtsodiy siyosatining bosh maqsadi sifatida uning rivojlanish qonuniyatlariga va makro darajadagi tartibga solish shartlariga bo‘ysunadi

Davlatning iqtisodiy o‘shishni rag‘batlantirishga samarali tadbirlarining muhim yo‘nalishi sifatidagi faolivati

Korxonada moliyaviy siyosat – korxonada taraqqiyot dasturining tarkibiy qismi sifatida

Korporativ moliyaviy siyosat maqsadlari. Korxonada moliyaviy siyosati tahlilining vaqt doirasidagi cheklanganligidan kelib chiqib, iqtisodiy o‘shish maqsadining ikki darajasini farqlash lozim: asosiy mikroiqtsodiy ko‘rsatkichlarning o‘zgarishi va aholi turmush darajasining o‘zgarishi.

Korxonada moliyaviy siyosatining yo‘nalishlari. Ishlab chiqarish omillarining mutanosibligi va o‘zaro harakatining moliyaviy ta‘minotiga xizmat qiluvchi barcha vosita, tadbirlar, usullar va imkoniyatlar majmui.

Korxonada moliyasi ko‘rsatkichlari (korporativ moliya statistikasi). Korxonada moliyasini boshqarish jarayoni miqdoriy va sifat ko‘rsatkichlari orqali xususiyatlanadi. Korxonada moliyasining miqdoriy ko‘rsatkichlariga ishlab chiqarish va realizatsiya hajmi, yalpi ichki mahsulot ishlab chiqarish va foydaning o‘shish sur‘ati, iqtisodiy samaradorlik (mehnat unumdorligi) ko‘rsatkichlari va boshqalar. Korporativ moliyaviy siyosat yakunlari *korxonada moliyaviy holati va uning ko‘rsatkichlariga ta‘sir ko‘rsatadi.*

Korxonada moliyaviy siyosatining mazmuni, vazifalari va omillarini tizimli tushunish va tadqiq etish


Korxonada moliyaviy siyosati samaradorligi. Faqat korxonada ishlab chiqarish samaradorligi o‘shishiga va uning hajmi oshishiga asoslangan korporativ moliya siyosatiga korxonaning o‘shish borayotgan ehtiyojlarining qondirilishini ta‘minlaydi.

Korporativ moliya siyosati ziddiyatlari. Korxonada moliyaviy resurslarining absolyut va nisbiy ko‘rsatkichlarda o‘shishi hali turmush darajasi va sifatining yaxshilanishiga olib kelavermaydi va bunga moliya siyosati ziddiyatlari to‘sqinlik qiladi: moliyaviy ziddiyat (moliyaviy resurslar manbalarining cheklanganligi, moliyaviy risklar keskinlashuvi, moliyaviy holatning yomonlashuvi) va ijtimoiy muammolarning keskinlashuvi (daromadlar taqsimotidagi notenglik, mehnatning o‘ta intensivlashuvi va h.k.);

Korxonada moliyaviy siyosati samaradorligi omillari tizimi - moliyaviy siyosat samaradorligining xususiyati, jihatlari, tur(tip) lari va dinamikasini aniqlovchi sabab-oqibat hodisalari, zarur sharoitlardir.

1-rasm. Korxonada moliyaviy siyosatining mazmuni, vazifalari va omillarini tizimli tushunish va tadqiq etish

Shuningdek, moliyaviy rejalashtirishni, hisob-kitoblarni, pul oqimlarini, qimmatli qog'ozlarni boshqarishni, tavakkalchilikni baholashni va boshqa boshqaruv vazifalarini amalga oshirishni amalga oshiruvchi moliya-xo'jalik xizmatlari faoliyatini tashkil etish masalalari tahlil qilish lozim. Moliyaviy boshqaruvchining roli xodimlarning umumiy soniga, funksiyalar taqsimotiga, biznesning o'ziga xos xususiyatlariga va iqtisodiy faoliyat ko'lamiga qarab korxonaning maqsadlariga erishish uchun ssenariylarni modellashtirishning o'ziga xos vazifalariga to'g'ri keladi. Muallifning pozitsiyasi shuni ko'rsatadiki, korxonani boshqarish maqsadlariga javob beradigan samarali moliyaviy siyosatni ishlab chiqishda konsalting va auditorlik firmalarining mutaxassislarini jalb qilish tavsiya maqsadga muvofiq.



2-rasm. Korxonaning moliyaviy siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish tartibi

Ishlab chiqarilayotgan kimyo mahsulotlari tannarxini pasaytirish hisobiga uning tashqi va ichki bozorlardagi raqobatdoshligini oshirish, ishlab chiqarishni diversifikatsiyalashni chuqurlashtirish, kimyo tarmog'i korxonalarini yanada modernizatsiyalash, rekonstruksiyalash va texnik qayta jihozlashni amalga oshirish, energiya va resurslarni tejaydigan zamonaviy texnologiyalarni joriy etish asosida xaridorgir mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarish hajmini ko'paytirish, shuningdek, tarmoqni rivojlantirish tizimini tubdan takomillashtirish, korxonaning

moliyaviy siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish ilgʻor usullarini keng qoʻllash maqsadida Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 12-aprelda “Oʻzkimyosanoat” AJ boshqaruv tuzilmasini takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida” gi Qarori qabul qilindi. Unga koʻra xorijiy va mahalliy investorlarning sarmoyalarni jalb etish yoʻli bilan zamonaviy kimyo ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish va mavjud quvvatlarni qayta jihozlash va modernizatsiya qilish hamda Oʻzbekiston kimyo korxonalarini xususiylashtirish va davlat mulkidan chiqarish jarayonlariga xorijiy investorlarni jalb etish belgilab berildi.

3-jadval

“Oʻzkimyosanoat” AJning buxgalteriya balansi aktiv tomonining tahlili⁹

| Balans aktiv tomoni | Yil boshiga (mln soʻm) | | | | | | Yil oxiriga (mln soʻm) | | | | | | Yil boshiga nisbatan oʻzgarishi (+, -) mln. sum | | |
|----------------------------------|------------------------|---------|---------|-------------|------|------|------------------------|---------|---------|-------------|------|-------|---|---------|--------|
| | Summa, mln. sum | | | Salmogʻi, % | | | Summa, mln. sum | | | Salmogʻi, % | | | | | |
| | 2020 | 2021 | 2022 | 2020 | 2021 | 2022 | 2020 | 2021 | 2022 | 2020 | 2021 | 2022 | 2020 | 2021 | 2022 |
| Korxonalar mulki, jami | 1703600 | 2032691 | 2134011 | 100 | 100 | 100 | 2032691 | 2134011 | 2151998 | 100 | 100 | 100 | +329091 | +101320 | +17987 |
| 1. Uzoq muddatli aktivlar | 1671473 | 1949462 | 1996579 | 98,1 | 95,9 | 93,6 | 1949462 | 1996579 | 2074939 | 95,9 | 93,6 | 96,42 | +277989 | +47117 | +78360 |
| 2. Joriy aktivlar | 32127 | 83229 | 137432 | 1,9 | 4,1 | 6,4 | 83229 | 137432 | 77059 | 4,1 | 6,4 | 3,58 | +51102 | +54203 | -60373 |
| 2.1. Zahira va xarajatlar | 283 | 362 | 548 | 0,02 | 0,02 | 0,02 | 362 | 548 | 879 | 0,02 | 0,02 | 0,04 | +79 | +186 | +331 |
| 2.2. Joriy debitorlik qarzdorlik | 29653 | 52476 | 72470 | 1,74 | 2,58 | 3,38 | 52476 | 72470 | 35846 | 2,58 | 3,38 | 1,67 | +22823 | +19994 | -36624 |
| 2.3. Pul mablagʻlari va QMMQ | 2181 | 30391 | 64414 | 0,14 | 1,50 | 3,00 | 30391 | 64414 | 40334 | 1,50 | 3,00 | 1,87 | +28210 | +34023 | -24080 |

3-jadval maʼlumotlari tahlili shuni koʻrsatadiki, buxgalteriya balansi aktiv tomoni maʼlumotlariga koʻra, Oʻzkimyosanoat AJ 3 yil mobaynida jami mulkning tarkibi, tuzilishiga baho berildi. Balans aktiv tomonida korxonalar mulki aks ettiriladi va u 2 guruhdan iborat: uzoq muddatli aktivlar va joriy aktivlar. Biz tahlil qilayotgan Oʻzkimyosanoat AJning mulki ham uzoq muddatli aktivlar va joriy aktivlardan iborat. Odatda joriy aktivlar tarkibi chuqur oʻrgnailadi, ularning tarkibiga “Zahira va xarajatlar”, “Joriy debitorlik qarzdorlik” hamda “Pul mablagʻlari va qisqa muddatli moliyaviy qoʻyilmalar (QMMQ)” kiradi.

Oʻzkimyosanoat AJning 2020-yilda jami mulki yil boshiga nisbatan 29091 mln soʻmga, 2021-yilda 101320 mln soʻmga, 2022-yilda esa 17987 mln soʻmga oshgan.

⁹ Muallif hisob-kitoblari (Oʻzkimyosanoat AJ maʼlumotlari asosida).

Aktivlarning ko'payishini ijobiy baholagan holda, ma'lumotlarga e'tibor qiladigan bo'lsak, aktivlarning ko'payishi asosan uzoq muddatli aktivlarning ortganligi hisobiga bo'lgan. Mulk tarkibida asosiy ulushni uzoq muddatli aktivlar tashkil etadi. Masalan 2020-yili uzoq muddatli aktivlar salmog'i 98,1%, joriy aktivlar esa 1,9%ni tashkil etgan. Yil oxirida joriy aktivlar 4,1%ni tashkil etib, uzoq muddatli aktivlar 96,9%ga teng. Joriy aktivlarning 2020-yil oxiridagi debitorlik qarzlarning 22823 mln so'mga ortishini salbiy baholash mumkin. O'z kimyosanoat AJ ma'muriyati debitorlik qarzdorlikni o'z vaqtida o'ndirib olish chora tadbirlarini ishlab chiqish lozim. 2021-yilda uzoq muddatli aktivlar salmog'i pasaygan va 93,6%ni tashkil etgan. Joriy aktivlar yil boshiga nisbatan 54203 mln so'mga ko'paygan va jami mulkda tutgan salmog'i o'sgan va 6,4%ni tashkil etgan. 2021-yilda joriy aktivlar asosan debitorlik qarzdorlikning 19994 mln so'mga ko'payishi hisobiga bo'lganini salbiy baholash mumkin. Ushbu debitorlik qarzdorlikni kamaytirish uchun chora tadbirlar ishlab chiqish lozim. Shu bilan birga joriy aktivlar tarkibida pul mablag'lari va qisqa muddatli moliyaviy qo'yilmalar (QMMQ) miqdori bo'yicha 34023 mln so'mga kupaygan. Albatta bu ijobiy holat hisoblanadi. 2022-yil oxirida uzoq muddatli aktivlar ulushi 96,42%ni tashkil etgan va 2021-yilga nisbatan 78360 mln so'mga ortgan. Bunday o'sishni ijobiy baholash mumkin. 2022-yil oxirida joriy aktivlarning jami mulkda tutgan salmog'i 3,58% ga teng. Bu ko'rsatkich 2022-yil boshiga nisbatan 60373 mln so'mga kamaygan. Kamayish debitor qarzdorlikning 36624 mln so'mga kamayishi va pul mablag'lari hamda QMMQning 24080 mln so'mga kamayishi hisobiga sodir bo'lgan. Korxonaga ma'muriyati debitorlik qarzdorlikni o'ndirib olish bo'yicha ancha tadbirlarni amalga oshirgan. Joriy aktivlar tarkibida zahira va xarajatlar juda kam va faqatgina 2020-yili 2,58%ni, 2021-yili 3,38%, va 2022-yili 1,67ni tashkil etgan.

Balanslangan ko'rsatkichlar tizimi korxonaga kelajakdagi moliyaviy ko'rsatkichlarni bashorat qilish imkonini beruvchi boshqaruv vositasidir. Bu kompaniyaning muvaffaqiyatga erishishi uchun nafaqat moliyaviy ko'rsatkichlarni, balki uning faoliyatining boshqa jihatlarini ham hisobga olish kerak degan fikrga asoslanadi.

Balanslangan ko'rsatkichlar tizimi quyidagi yo'nalishlar bo'yicha asosiy samaradorlik ko'rsatkichlarini aniqlaydi va o'lchaydi:

1. Moliya: foyda, kapital rentabelligi, aktivlar rentabelligi va boshqalar kabi an'anaviy moliyaviy ko'rsatkichlarni o'z ichiga oladi.
2. Mijozlar: mijozlarning qoniqishi, bozor ulushi, takroriy sotuvlar va mijozlar muvaffaqiyatini belgilovchi boshqa omillar bilan bog'liq bo'lgan chora-tadbirlar.
3. Ichki jarayonlar: Boshqa sohalarida muvaffaqiyatga erishish uchun asos bo'lgan korxonadagi asosiy jarayonlar o'lchanadi va takomillashtiriladi.

Balanslangan ko'rsatkichlar tizimi rahbariyat va menejerlarga har bir sohada maqsadlar qo'yish va ushbu maqsadlarga erishish uchun strategiyalarni ishlab chiqish imkonini beradi. Shu bilan birga, tizim korxonaga faoliyatining boshqa jihatlaridagi o'zgarishlar asosida kelajakdagi moliyaviy natijalarni bashorat qilish imkoniyatini beradi.

Umuman olganda, balanslangan ko'rsatkichlar kartasi o'z faoliyatining turli jihatlarini hisobga olish va muvaffaqiyatga erishish strategiyalarini ishlab chiqishda yordam berish qobiliyati tufayli korxonaning kelajakdagi moliyaviy ko'rsatkichlarini

bashorat qilish uchun kuchli vosita bo‘lib kompaniya biznesining eng muhim strategik tarkibiy qismlari kontekstida miqdoriy va sifat o‘rishini rejalashtirish orqali kelajakdagi moliyaviy natijalarni bashorat qilish imkonini beradi.

4-jadval

“O‘zkimyosanoat” AJning buxgalteriya balansi passiv tomoni tahlili¹⁰

| Balans passiv tomoni | Yil boshiga (mln so‘m) | | | | | | Yil oxiriga (mln so‘m) | | | | | | Yil boshiga nisbatan o‘zgarishi (+, -) mln. sum | | |
|--|------------------------|----------------|----------------|-------------|------------|------------|------------------------|----------------|----------------|-------------|------------|------------|---|----------------|---------------|
| | Summa, mln. sum | | | Salmog‘i, % | | | Summa, mln. sum | | | Salmog‘i, % | | | | | |
| | 2020 | 2021 | 2022 | 2020 | 2021 | 2022 | 2020 | 2021 | 2022 | 2020 | 2021 | 2022 | 2020 | 2021 | 2022y |
| Korxonalar mulki manbalari jami | 1703600 | 2032691 | 2134011 | 100 | 100 | 100 | 2032691 | 2134011 | 2151998 | 100 | 100 | 100 | +329091 | +101320 | +17987 |
| 1. Xususiy kapital | 1588762 | 1870052 | 2095456 | 93,3 | 92,0 | 98,2 | 1870052 | 2095456 | 2114589 | 92,0 | 98,2 | 98,3 | +281290 | +225404 | +19133 |
| 2. Qarz kapitali | 114838 | 162639 | 38555 | 6,7 | 8,0 | 1,8 | 162639 | 38555 | 37409 | 8,0 | 1,8 | 1,7 | +47801 | -124084 | -1146 |
| 2.1. Uzoq muddatli majburiyatlar | 113894 | 127669 | 32419 | 6,68 | 6,3 | 1,5 | 127669 | 32419 | 32419 | 6,3 | 1,5 | 1,5 | 13775 | -95250 | - |
| 2.2. Joriy kreditorlik qarzdorlik | 944 | 34970 | 6136 | 0,02 | 1,7 | 0,3 | 34970 | 6136 | 4990 | 1,7 | 0,3 | 0,2 | 34026 | -28834 | -1146 |

4-jadval ma’lumotlari tahlili shuni ko‘rsatadiki, O‘zkimyosanoat AJ buxgalteriya balansining passiv qismida tashkilot mablag‘larining qoplash manbalari ko‘rsatiladi. Xo‘jalik subekti balansining passiv tomoni 2 xil manbadan tashkil topadi: xususiy kapital va qarz kapitali. Manbalarni tahlil qilishda majburiyatlar yoki qarz kapitali tarkibi bo‘yicha ham o‘rganib chiqilishi zarur. Jumladan 3-jadval ma’lumotlariga ko‘ra O‘zkimyosanoat AJning mulk manbalari ham xususiy kapital va qarz kapitalidan tashkil topgan. Qarz kapitali tarkibida “Uzoq muddatli majburiyatlar”, “Qisqa muddatli kreditlar va qarzlilar” va “Joriy kreditorlik qarzdorlik” chuqur o‘rganiladi.

Biz tahlil qilayotgan O‘zkimyosanoat AJ 3 yil mobaynida o‘zgarishlari 3-jadvalda keltirilgan. 3 yil mobaynida korxonalar qisqa muddatli kreditlar va qarzlardan

¹⁰ Muallif hisob-kitoblari (O‘zkimyosanoat AJ ma’lumotlari asosida).

foydalanmagan, shuning uchun qarz kapitali “Uzoq muddatli majburiyatlar” va “Joriy kreditorlik qarzidorlik” moddalaridan iborat. Jumladan uch yil mobaynida korxonada mulki manbalari kupaygan, shu jumladan 2020-yil oxirda yil boshiga nisbatan kupayish 329091 mln soʻmni, 2021-yilning oxirida mulk manbasi 101320 mln soʻmga, 2022-yili esa 17987 mln soʻmga ortgan. Mulk manbalarining tarkibi oʻzgarishiga eʼtibor bersak:

2020-yili Oʻzkiyosanoat AJning mulk manbalari jami 329091 mln soʻmga ortgan, shu jumladan kupayish asosan xususiy kapitalning 281290 mln soʻmga oshgan hisobiga, qarz kapitali esa 47801 mln soʻmga ortgan hisobiga vujudga kelgan. Qarz kapitali tarkibida uzoq muddatli majburiyatlari 13775 mln soʻmga kupaygan, joriy kreditorlik qarzidorlik esa 34026 mln soʻmga oshgan. Joriy kreditorlik qarzidorlikning oʻsishi bu salbiy holat hisoblanadi, uni kamaytirishga chora tadbirlar koʻrib chiqish zarur. Oʻzkiyosanoat AJning mulk manbalari 2021-yili jami 101320 ortgan, shu jumladan: xususiy kapitalning 225404 mln soʻmga kupayishi hisobiga, qarz kapitalining esa 124084 mln soʻmga kamayishi hisobiga amalga oshirilgan. Albatta qarz kapitalining mulk tarkibida kamayishi korxonada moliyaviy barqarorligining mustaxkamlashiga olib keladi. Qarz kapitali tarkibida uzoq muddatli majburiyatlari 95250 mln soʻmga kamaygan, joriy kreditorlik qarzidorlik ham 28834 mln soʻmga kamaygan. Uzoq muddatli majburiyatlar va joriy kreditorlik qarzidorlikning kamayishini ijobiy baholash zarur.

2022-yilda Oʻzkiyosanoat AJning mulk manbalari jami 17987 mln soʻmga ortgan. Mulk manbalarining kupayishi asosan xususiy kapitalning 19133 mln soʻmga ortishi hisobiga, va qarz kapitalining 1146 mln soʻmga kamayishi hisobiga sodir boʻlgan. Bunday nisbatni ijobiy baholash zarur. Qarz kapitali tarkibida kamayish asosan Joriy kreditorlik qarzidorlik hisobiga toʻgʻri keladi.

Kompaniya faoliyatining ushbu yoʻnalishlari Oʻzbekiston kimyo sanoati rivojlanishining muhim omillari sifatida xizmat qiladi, uning ishlab chiqarish qudratini oshiradi va bozor iqtisodiyoti mexanizmlarini ishini taʼminlaydi.

Har qanday korxonada faoliyatining uzoq muddatli yutuqlari ishlab chiqilgan strategiyaga bogʻliq boʻladi. Agar korxonaning rivojlanish strategiyasi boʻlmasa u yoki bu xatoliklar bilan ishlab chiqilgan boʻlsa, bu hol korxonaga bozorda barqaror va mustahkam oʻrin egallash uchun imkon bermaydi. Zamonaviy ilm-fan va amaliyot strategik rejalashtirish hamda boshqarishning katta tajribasiga ega, ammo koʻpgina strategiyalar haligacha tashqi va ichki muhitning oʻzgaruvchan shart-sharoitlariga moslasha olmayapti. Bu hali hanuzgacha strategik boshqarishning barcha muammolari ham oʻz echimini topmaganligini koʻrsatadiki, bunday hol, birinchi navbatda, korxonada rivojlanishi strategik barqarorligining mexanizmlarini ishlab chiqish bilan bogʻliq¹¹.

